

SHARHLASH JURNALISTIKASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Ziyauatdinova Aysholpan Gayratdiyin qizi

Berdaq atindagi Qaraqalpaq Mamleketlik Universiteti

Qaraqalpaq filologiyasi ham Jurnalistika fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14970311>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sharhlash jurnalistikasi va uning asosiy xususiyatlari haqida so'z boradi. Sharhlash jurnalistikasi muhim janr bo'lib, u tahririyat va mualliflik sahifalarini o'z ichiga oladi. Sharhlarning muhim jihatlari, ularning gazeta va o'quvchilarga foydalari, shuningdek, sharhlovchi journalist

larning to'g'ri prinsiplar va axloqiy tamoyillarga rioya qilishi kerakligi ta'kidlanadi. Bunday sharhlar ijtimoiy-siyosiy hayotga faol qatnashish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va jamoat fikrini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada sharhlarning turli xil turlari, jumladan, ochiq, pardalangan va noihthiyoriy sharhlar haqida gapirilgan.

Kalit so'zlar: Sharhlash jurnalistikasi, tahririyat, mualliflik sahifalari, ijtimoiy-siyosiy hayot, tanqidiy fikrlash, sharh turlari, ochiq sharh, pardalangan sharh, noihthiyoriy sharh, jurnalistika etikasi, jamoat fikri.

MAIN FEATURES OF COMMENTARY JOURNALISM

Abstract. This article discusses commentary journalism and its main features. Commentary journalism is an important genre, which includes editorial and editorial pages. The important aspects of commentary, their benefits to newspapers and readers, as well as the need for commentators to adhere to correct principles and ethical principles are emphasized. Such commentary helps to actively participate in socio-political life, develop critical thinking and form public opinion. The article also discusses various types of commentary, including open, veiled and involuntary commentary.

Keywords: Commentary journalism, editorial, editorial pages, socio-political life, critical thinking, types of commentary, open commentary, veiled commentary, involuntary commentary, journalistic ethics, public opinion.

КЛЮЧЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ЖУРНАЛИСТИКИ

Аннотация. В статье рассматривается комментаторская журналистика и ее основные характеристики. Публицистика-комментаторство — важный жанр, включающий редакционные и редакционные статьи. Важные аспекты обзоров, их польза для газет и читателей, а также для журналиста, который их пишет

Подчеркивается, что люди должны придерживаться правильных принципов и этических норм. Подобные комментарии помогают активно участвовать в общественно-политической жизни, развивать критическое мышление и формировать общественное мнение. В статье также рассматриваются различные типы комментариев, включая открытые, завуалированные и произвольные комментарии.

Ключевые слова: комментаторская журналистика, редакционная статья, авторские страницы, общественно-политическая жизнь, критическое мышление, типы комментариев, открытый комментарий, завуалированный комментарий, невольный комментарий, журналистская этика, общественное мнение.

Sharhlash jurnalistikasi o'z ichiga tahririyat va mualliflik sahifalarini oladi. Barcha vaziyatlarda ham sharh o'z nomi bilan auditoriyaga yetkazilishi kerak. Uning sarlavhasidan tortib matn tuzilishigacha ushbu qoida amalga oshirilishi kerak. Matbuot sharhlari har doim ham hukumatning matbuot xizmati sharhlari bilan mos kelavermasligi mumkin. Hukumat qarorlari va xatti-harakatini doimo sharhlab borish jurnalistikaning ajralmas qismidir. Shu bilan birga kundalik matbuot sharhlari tanqid va nozik shama-ishoralarga moyilroq bo'lishadi. Lekin barcha hollarda ham sharhlar jamiyat uchun foydali va samarali bo'lgan hamda birgalikdagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlashi lozim. Hatto G'arbning eng «sariq matbuoti» vakillari ham o'quvchilar ehtirosini junbushga keltiruvchi sharhlarni yozishga istihola qilishadi. Ular o'z gazetchilari va reklama beruvchilarga o'ta bog'liqligi va ularni qo'lda saqlab turishga majburligi tufayli biron-bir siyosiy yoki diniy qarashlarni targ'ibot qilishlari darg'umon. Hozirgi kunda jurnalistikaning jamiyat oldidagi ijtimoiy javobgarligi o'ta muhim tamoyil sifatida hisoblanmoqda va bu tushuncha sharhlash jurnalistikasi uchun ham o'ta muhim.

Sharhlash jurnalistikasining gazetxonalarga foydali bo'lgan 5 ta asosiy jihati mavjud:

1. Voqea-hodisalar haqidagi axborotning ko'pligi tufayli yuzaga kelgan tushunmovchilik va tartibsizliklarni ma'lum bir qoliplarga solishga yordam beradi, o'quvchilarni OAV tomonidan uzatilayotgan haddan tashqari ko'p xabar va yangiliklarga bog'lanib qolishdan saqlaydi.
2. O'quvchilarni ijtimoiy-siyosiy hayotga faol ishtirok etishga undaydi.
3. O'quvchilarda tanqidiy nuqtai nazarni shakllantirishga hamda har xil uydirma va yolg'onlarga ishonmaslikka ko'nikma hosil qiladi. Muhim va jiddiy muammolar atrofida suhbat va bahs-munozaralar uyushtiradi.

4. Jamiyat fikri oldida mualliflarning mas'uliyatini, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan qarorlarni demokratik yo'l bilan xabardor qilish qo'ida qat'iy ekanligi.

5. Gazetalar nuqtai nazari ham noto'g'ri bo'lishi yoki har qanday qaror va xatti-harakatlar shubha ostiga olinishi mumkinligiga o'quvchilarda ko'nikma hosil qiladi.

Sharhlash jurnalistikasi jurnalistik ijod nazariyasi fanining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U murakkab janr va ijod turi bo'lgani uchun ham U1 semestrda 2 kurs talabalariga yetakchi fan sifatida o'tiladi. Sharhlash jurnalistikasi matbuot haqidagi boshqa fanlar bilan, jumladan tahliliy jurnalistika bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur fan shu bilan birga jurnalistik mahorat sirlarini egallashda hamda mantiqan fikr yuritishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni bu kurs jurnalistlarning kasbiy tayyorganligida markaziy o'rin egallaydi.

Kurs ilmiy ma'ruza, savol-javob va boshqa xildagi amaliy mashg'ulotlar tarzida olib boriladi. Talabalarining bu kursdan olingan bilimlari reyting va yozma usullar asosida tekshirib boriladi. Buning uchun talabalar mashg'ulotlarga muntazam qatnashish, berilgan ilmiy publitsistik adabiyotlarni chuqur o'zlashtirishi, OAVning kundalik faoliyati bilan tanishib borishi talab etiladi.

Sharhlash turlari. Ochiq sharh. Jahonda kechayotgan voqealardan voqif bo'lar ekansiz har doim ham tezda uning biror mamlakat yoki jahon tarixidagi ahamiyati haqida tasavvurga ega bo'lish oson emasligini sezasiz. Buning uchun avvalo dunyoda kechayotgan voqea-hodisalaridan muntazam voqiflik, ular mohiyatiga yetishishga bo'lgan tinimsiz harakat, hodisalardagi hamma ham ko'rishga qodir bo'lmagan o'zaro bog'liq narsalarni anglash zarur. Shu bois ham biz ko'pincha dunyodagi yangiliklar bilan tanishar ekanmiz, sharhlovchilar talqiniga e'tibor qaratamiz. Bu o'rinda ularning bilimdonligi, ziqqligi, mahorati har birimizda va umuman jamiyatda ma'lum voqeaga nisbatan jamiyat fikrini shakllantirishga yordam beradi.

Shuning uchun nazariyotchilar sharh yozish bo'yicha quyidagi qoidalarga amal qilishini aytishadi:

1. Sharhlovchi faktlarni ruyi-rost va to'liq holda o'quvchilarga taqdim etishi lozim. Sharhni yarim haqiqatga asoslanib yozish yaramaydi va bu vijdotsizlikdir. Sharhlovchi hech qachon o'quvchini bila turib yanglishtirmasligi, vaziyatni noto'g'ri talqin etmasligi yoki biror kishini noqulay vaziyatga qo'yimasligi kerak.

2. Sharhlovchi ma'lumotlarning mohiyatiga va ularning yaxshi xizmat qilishiga asoslangan holda tasdiqlangan faktlardan xolisona xulosa chiqarishi lozim.

3. Sharhlovchi hech qachon o'zining shaxsiy manfaatlari yo'lida yoki maxsus biron-bir foydani ko'zlab o'z ta'sirini o'tkazmasligi, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga xizmat qilishdan qo'chishi lozim.

4. Sharhlovchi o'zining haq ekanligini anglash lozim. Ya'ni sharhlovchi uchun naqadar og'ir bo'lsa-da, kim norozí bo'lsa o'shanga birinchi bo'lib ovoz berilishi lozimligini anglash kerak. Mazkur norozilik ovozlari, taklifnomalar yoki mehmonlar sahifasi rukni shaklida bo'lishi mumkin.

5. Sharhlovchi o'z fikr-mulohazalarini muntazam ravishda hammaga tushunarli tarzda yetkazib berishi lozim va zarur bo'lgan joyda tuzatishlar kiritishdan tortinmasligi lozim.

6. Sharhlovchi o'zida kuchli e'tiqodga va hayotning demokratik tamoyillariga qat'iy ishong'i bo'lishi zarur. U bironing vijdoni va e'tiqodini haqoratlaydigan har qanday narsani sharhlashdan o'zini saqlashi kerak. Ko'pincha gazeta sahifalari bitta fikrni ilgari suradilar. Shuni unutmangki har qanday umum to'g'ri fikrlar avvalo individual (yakka) shaxsiy fikrlar majmuasidan paydo bo'ladi. Shuning uchun har qanday boshqacha fikr e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

7. Sharhlovchi kasbiy daxlsizlikning oliy mezonlariga rioya qilishi, o'zining hamkasblarini qo'llab-quvvatlashi lozim.

Ommaviy axborot vositalarida faoliyatingiz davomida maqolalaringizda o'z fikringizni berishga majbur bo'lasiz. Jurnalistika o'z tabiatiga ko'ra subyektiv hodisadir. U tevarak-atrofdan ruy berayotgan voqea-hodisalariga o'z munosabatini bildirishga majbur. Ongli yoki noihtiyoriy, ochiq yoki pardalangan sharhlar - ushbu kasbning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Har kundalik gazeta sahifalarini bosh maqolalarsiz va muallif sahifalarisiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu maqolalarda fikr-mulohazalar ilgari surilishi tabiiy, albatta. Go'hida reportaj yoki xabar tarzida uzatilgan materiallarni sharh deb berish hollari ham uchraydi. Sharhning hajmi turli tarzda bo'lishi mumkin. Kichkina xabar hajmida ketgan sharhlar gohida nafaqat gazetchini, balki muallifning o'zini ham hayratga solishi mumkin.

Buyuk Britaniyalik jurnalist va olim Devid Rendall sharhning uchta turini ko'rsatadi: ochiq, pardalangan va noihtiyoriy sharh. Ochiq sharh - bu aniq ko'rinishdagi narsani sharhlash: jurnalist to'g'ri va ochiqchasiga o'z fikr-mulohazasini bildiradi. Umuman olganda sharhning ushbu ko'rinishidan dunyoning ko'pgina gazetalari voz kechishgan, hatto ta'qiqlab ham qo'yishgan. Buyuk Britaniya va AQShda ochiq sharhni bemani deb hisoblashadi hamda uning xizmatidan butunlay voz kechishgan. Muallif ochiq sharhlayotganda barcha gazetchilar bir xil

fikrga ega deb o'ylaydilar: yangiliklar rubrikasida faqat xabarlar bo'lishi kerak, agar iloji bo'lsa unga hech narsa qo'shilmasligi kerak. Sharh esa bu tahririyat materiallari, mashhur mualliflik sahifalari hamda fikr, munosabatlar va hokazolarga mo'ljallangan.

Ko'p hollarda o'quvchilar xabarlarga o'qiyotganida unga qandaydir faktlarni yetkazayotganini bilishadi. Hamma ham sharhlashi mumkin, lekin har kimda ham eng oxirgi faktlar bo'lavermaydi-ku. Shuning uchun ham yangiliklar sharhlardan ko'ra qiziqarliroqdir. Va shu sababli sharhlash bilan yangilikni chalg'ashtirib yuborish ikkisini ham qadri tushirishi tabiiy. Bunday hollarda voqealar xira tortadi va o'z qadri yo'qotadi.

Barcha hollarda bo'lgani kabi bu yerda ham ochiq sharh uchun mustasno qilish mumkin. Agar katta tajribaga ega bo'lgan jurnalist o'zi bilgan mavzuda yozayotgan bo'lsa, unda ochiq sharhlashi mumkin. Chunki uning fikr-mulohazalari gazetchiga ko'p narsa beradi. Ushbu huquqni xorijda uzoq yillar ishlagan muxbirlarga ham berish mumkin. Albatta bu yerda muxbirlar «Ular nima deyishsa deysinu, lekin mening fikrimcha...» qabilidagi so'zlar bilan maqola yozmasliklari kerak. Ko'proq yangi chizgilar berishga harakat qilishi kerak. Lekin barcha holatlarda ham ularga ochiq sharh talabi quyilishi zarur.

Iloji bo'lsa sharhning ushbu turiga kam murojaat qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Faqat faktlardan iborat bo'lgan reportajlar gazeta faoliyatining asosini tashkil etadi. Shu bilan birga keng sharh fikr-mulohazalardan ham foydalanish zarur. Hozirgi kunda axborotlar shu darajada ko'pki, ularning ko'piga sharh talab etiladi. Shuning uchun ham turli sharhlarga e'tibor kun sayin ortmoqda. Barcha hollarda ham ochiq sharh samimiy, tezda anglashiladigan tarzda gazetxonalarga yetkazilishi kerak.

REFERENCES

1. Тўртинчи ҳоқимият. Ўзбекистон Республикасининг қонунлари, қарорлари ва бошқа ҳужжатлар тўплами (тузувчи ва сўзбоши муаллифи Ж.Раззоқов). Т.Ўзбекистон, 1998.
2. Рендалл Д. Универсальный журналист: перев. С англ. Алексея Порьяза. Алматы: 1996.
3. Ворошилов В.В. Журналистика: Учебник. СПб.: Изд. Михайлова, С.-Петербург, 1999.
4. Fred Fedler, John R. Bender, Luchinda Davenport, Paul E. Kostya / Reporting for the Media. Sixth Edition. USA: Harcourt Brace E Company, 1997.